

O'SMIRLIK DAVRIDAGI PSIXOLOGIK O'ZGARISHLAR

¹Abdullayeva Sarvinoz, ²Bediqulova Mahbuba

¹Guliston davlat pedagogika instituti tillarni o'qitish Fakulteti 1-bosqich talabasi
²O'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20199300>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smir yoshlarda yuz beradigan holatlar to'g'risida malumotlar berildi. Jamiyatimizda o'smirlarni katta hayotga to'g'ri yo'naltirish biz uchun asosiy vazifa hisoblanadi. Maqolada farzandlarda shu davr boshlansa Ota-onalar qanday yo'l tutish kerakligi bo'yicha foydali maslahatlar aytib o'tildi.

Kalit so'zlar: Xarakter, O'tish davri, gormonal o'zgarishlar, Z. Freyd, xotira, idrok

Kirish

Xarakter aksentuasiyasi K.Leongard tomonidan kiritilgan tushuncha ho'lib, xarakter ba'zi sifatlarning yorqin namunasidir. Xarakter akcentuatiyasini bilish o'smirlarga individual yondashish, kasbga yo'naltirish kabilarda zarurdir. O'z-o'zini baholash shaxsning o'zini boshqalar bilan taqqoslash va refleksiya natijasida oz-o'zini baholash murakkab va o'zgaruvchan bo'lib, shaxs strukturasi katta o'rin tutadi.

Anatomo fiziologik xususiyatlari

Butun endokrin sistemasining, xususan gipofizning aktivlashishi tufayli o'smir organizmida sifat jihatdan o'zgarishlar yuz beradi. Bu holat qizlarda 11-13, o'g'illarda 13-15 yoshda bo'lib, ikkilamchi jinsiy belgilar paydo bo'ladi, o'smirning tashqi ko'rinishi o'zgaradi. Muskullar massasi va muskul kuchi o'sadi, bu bolat jinsiy yetilish davrining oxiriga borib tezlashadi. Ichki organlar, xususan yurak o'sadi. Ba'zan yurak qon-tomir sistemasida patologik o'zgarishlar yuz beradi.

O'tish davrining inqirozi haqida nazariy qarashlari

Biogenetik yo'nalish vakllari S.Xall va Z.Freyd bu inqiroz biologik shartlanganligi tufayli muqarrardir deb hisoblasalar, amerikalik antropologlar M.Mid va R.Benedikt o'smirlik inqirozi ijtimoiy munosabatlarning natijasidir deb isbotlaydilar. R.Benedikt bolalikdan kattalikka o'tishning 2 usulini ko'rsatadi.

O'smirlardagi asosiy psixologik o'zgarish

O'smir o'zini asta-sekin katta odam deb his qila boshlaydi, lekin ko'p odat va xususiyatlari bolalarcha bo'lib qoladi. Bu hissiyot kattalik hissi deb ataladi va o'smirlikdagi asosiy psixologik yangilikdir. Bu his o'smirda o'ziga, atrof muhitga, odamlarga nisbatan yangi hissiy pozitsiyani yuzaga keltiradi. U bolalar xulq-atvorini kattalar xulqi va qadriyatlariga qayta orientatsiya qila boshlaydi. O'smir o'z huquqlari doirasini kengaytiradi, kattalarni esa cheklashni xohlaydi.

Bilish jarayonlarining o'sishi

O'smirning qiziqishlari ortadi, bilish faoliyati maktab programmasidan tashqariga chiqadi, mustaqil o'qiy boshlaydi. Uning tafakkirida tanqidiylik, mustaqillik hosil boladi. O'qituvchi o'quvchilarga o'quv materiallarini taqqoslashni, mavhumlashtirishni, o'z fikrini to'g'ri, ravon va aniq ifodalash yo'lini tushuntirib berishlari lozim. O'smirlarning o'quv faoliyatida, o'quv materialini o'zlashtirish darajasida, umumiy intellektual rivojlanishida turli darajadagi o'quvchilarni uchratish mumkin.

O'quv faoliyatidagi kamchiliklar kichik sinflarda bilinmagan bo'lsa, V-VI sinflarda o'zlashtirishi keskin farqlanadigan bolalar ko'zga tashlanib qoladi. O'smirlarda nazariy, formal va reflektiv tafakkur turlari shakllanadi. Xotira, idrok jarayonlari ham intellektualizatsiya bo'la boshlaydi, ya'ni o'smir o'quv materiallarini ushinish idrok qilish va eslab qolishni o'rgana boshlaydi.

O'smirlik davri boshlanishi bilan yoshlar o'zini kattalardek tutishgan harakat qila boshlaydi. Va bu turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bilamizki, ba'zi bir bolalarning kinoqahramonlariga o'xshab kiyinishi yoki o'zi yoqtirgan insonlarga taqlid qilishi kabi holatlar o'smirlar o'rtasida ko'p kuzatiladi. Bu davrda o'g'il bolalar va qizlar turli qiyinchiliklarga uchrashadi. O'smir ikki tomonlama bosimga duch keladi: bir tomondan gormonal, ikkinchidan, u psixologik jihatdan ulg'ayib, oilasidan ajralib chiqadi. O'smirlar miyasida haqiqiy inqilob sodir bo'ladi, bu quyidagi xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi.

Ular qarashlardan juda xijolat tortadi. O'smirlar tengdoshlari yoki ota-onalari ularni kuzatayotganini bilsa, tashvishlanadi. Ular hatto biror narsaga diqqat qaratganda ham terlashi mumkin. Ular atrofida ta'siri ostida foydasiz qarorlar qabul qiladi. 13-16 yoshli o'smir o'zi tavakkal qilishga tayyor bo'lmaydi. Ammo tengdoshlari ichida bo'lsa, bu boshqa masala. Ular boshqalar oldida obro'sini yo'qotishdan ko'ra, o'zlariga zarar yetkazishni afzal ko'radi. Bundan tashqari, bu xatti-harakat keyingi yoshda ham kuzatiladi – aniqrog'i, 21 yoshgacha. 14 yoshni eng xavfli yosh deb atashadi: o'smir tengdoshlari ta'sirida tavakkal qilishga va noto'g'ri qarorlar qabul qilishga har qachongidan ham ko'proq moyil bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda o'smir yoshdagi bolalarga ota-onalar farzandining holatidan va yoshdan kelib chiqqan holda munosabat bildirishi kerak. Kop hollarda farzand ushbu davrda atrofida ta'siri ostida foydasiz qarorlar qabul qiladi. Ular hatto biror narsaga diqqat qaratganda ham terlashi mumkin. Ular atrofida ta'siri ostida foydasiz qarorlar qabul qiladi. 13-16 yoshli o'smir o'zi tavakkal qilishga tayyor bo'lmaydi. Ammo tengdoshlari ichida bo'lsa, bu boshqa masala. Ular boshqalar oldida obro'sini yo'qotishdan ko'ra, o'zlariga zarar yetkazishni afzal ko'radi. Bundan tashqari, bu xatti-harakat keyingi yoshda ham kuzatiladi – aniqrog'i, 21 yoshgacha. 14 yoshni eng xavfli yosh deb atashadi: o'smir tengdoshlari ta'sirida tavakkal qilishga va noto'g'ri qarorlar qabul qilishga har qachongidan ham ko'proq moyil bo'ladi.

References:

1. <https://daryo.uz/2024/02/02/onalarga-tavsiya-bolalarda-osmirlik-qachon-boshlanadi-va-otish-davrida-bilan-qanday-munosabatda-bolish-kerak>